

## ISLOMIY TALIMOTDA XAQIQAT VA ADOLAT MASALASI

Ilmiy raxbar:

**X.U.SAMATOV**

*TATU Samarqand filiali, KI24-05 guruh talabasi*

**Ne'matov Refat Tulqin o'g'li**

*Tel: +998934161382*

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada Islom dinida haqiqat va adolat tushunchalarining mohiyati, ularning Qur'on va Hadislardagi asoslari, ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda insoniy munosabatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, Islom tarixida adolat va haqiqat tamoyillariga amal qilgan buyuk shaxslar faoliyati misolida mavzu chuqur yoritiladi. Maqolada shaxsiy axloqiy poklik, davlat boshqaruvida adolatni ta'minlash hamda haqiqatga sodiqlik kabi masalalar ham keng ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Islom, haqiqat, adolat, Qur'on, hadis, shaxsiy axloq, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, inson huquqlari.

Islom dini haqiqat va adolatni inson hayotining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraydi. Islomiy ta'limotlarda bu ikki tushuncha faqatgina axloqiy qadriyatlar emas, balki jamiyatning asosiy ustunlari sifatida qaraladi. Haqiqat va adolatga rioya qilish nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy munosabatlarda ham muhim o'rin tutadi.

Haqiqat tushunchasi islom dinida quydagicha ifodalanadi . Haqiqat (arabcha: الحقيقة – al-haqq) Islomda Allohning sifatlaridan biri hisoblanadi. Qur'onda haqiqat doimo yolg'onning ziddi sifatida tasvirlanib, inson haqiqatni qabul qilish va unga ergashish lozimligi ta'kidlanadi. Alloh Qur'onda shunday marhamat qiladi: "Haqiqatan ham Biz payg'ambarlarimizni aniq dalillar bilan yubordik va ular bilan birga Kitob va mezonni

tushirdik, toki odamlar adolat bilan tursinlar..."<sup>1</sup> Ushbu oyatda ko`ringanidik, haqiqatni bilish va unga amal qilish jamiyatning adolat asosida rivojlanishida muhim omildir.

Islomda doimo haqiqatga amal qilish muhim omil hisoblanadi , islomda yolg`on gapirish qattiq qoralanadi. Payg`ambar Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: "Rostgo`ylik yaxshilikka, yaxshilik esa jannatga eltadi. Yolg`on esa yomonlikka, yomonlik esa do`zaxga eltadi."<sup>2</sup>

Bergan va`dasiga sodiq bo`lish va odamlarga haqiqatni yetkazish haqida esa Qur`oni Karimda shunday aytilgan: "Allohga bergen ahdingizga vafo qiling..."<sup>3</sup>

Islomda adolat tamoiyili esa quydagicha ifodalanadi. Adolat (arabcha: العدل – al-adl) Islomning asosiy qadriyatlaridan biri bo`lib, Allohning go`zal ismlaridan biri ham "Al-Adl", ya`ni "Adolatli" deb nomланади. Islomiy tamoyillarga ko`ra, adolat – har bir narsani o`z o`rniga qo`yish, hech kimga zulm qilmaslik va haqqoniy qaror chiqarish demakdir. Qur`oni Karimda adolat to`g`risida shunday deyiladi: "Albatta, Alloh sizlarga omonatlarni o`z egalariga topshirishni va odamlar o`rtasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm chiqarishni amr qiladi..."<sup>4</sup>

Qur`onda o`z yaqinlariga dushmanlarga nisbatan adolatli bo`lish haqida keltirilishicha: "Ey iymon keltirganlar! Alloh uchun guvohlik beruvchi bo`lingiz va adolatga rioya qilingiz, hatto u o`zlarining, ota-onalarining yoki yaqin qarindoshlaringizga qarshi bo`lsa ham..."<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Qur`oni Karim. (Hadid surasi, 25-oyat)

<sup>2</sup> Imam Muslim rivoyati.

<sup>3</sup> Qur`oni Karim. (Nahl surasi, 91-oyat)

<sup>4</sup> Qur`oni Karim, (Niso surasi, 58-oyat)

<sup>5</sup> Qur`oni Karim, (Niso surasi, 135-oyat)

Hukum chiqarishda adolatga rioya qilish borasida esa shunday rivoyat mavjud Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) shunday deganlar: "Eng sevimli banda – Alloh uchun adolat bilan hukm qiladigan boshliqdir."<sup>6</sup>

Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) odamlar o`rtasida adolat o`rnatuvchi zot sifatida yuborildilar va ularga Alloh shunday xitob qildi. "Men Alloh nozil qilgan Kitobga iymon keltirdim va sizlarning o`rtangizda adolatli bo'lishga buyurildim..."<sup>7</sup> Qur'on aynan bir holat yuzasidan va ayni bir matn yuzasidan ham adolat haqida so'zlaydi. Mana shunday holatlardan biri yetimlarga munosabatda bo'lishning shartidir. Alloh subhonahu va taolo deydi: "To voyaga yetgunicha yetimning moliga yaqinlashmangiz, magar chiroyli yo'l bilan (bo'lsa durust). O'lchov va tarozini adolat bilan to'la ado etingiz!.."<sup>8</sup>

Qur'onagi ko'p xotinli erlar haqidagi matnda ham keltirilgan. Qur'on er kishini har bir ayoliga adolatda bo'lishini talab qiladi. Sura yetim qizlarga nisbatan adolatsizlik qilmaslik haqidagi oyatlar bilan boshlanadi. Ular balog'at yoshiga yetganlarida, ikkinchi xotin sifatida bo'lsa ham turmushga chiqishi kerak. Ayniqsa, ayol va erkaklar soni o`rtasida nomuvofiqlik bo'lgan paytlarda bunga yo'l qo'yiladi. Bu sura Uhud urushi davrida nozil bo'lgan bo'lib, bu payt xuddi shunday holat hukm surmoqda edi. Ammo, Qur'on shunday deydi:

"...Bordiyu (ular o`rtasida) odil bo'la olmaslikdan qo'rqsangiz, bir ayolga (uyylaning)..."<sup>9</sup>

Musulmon bo'limganlar bilan munosabat borasida Qur'on shunday deydi: "Dinlaringiz to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o'z diyorlaringizdan (haydab)

<sup>6</sup> Imam Termiziyy rivoyati

<sup>7</sup> Qur'oni Karim,(Sho`ro surasi,15-oyat)

<sup>8</sup> Qur'oni Karim, ( An`om surasi, 152-oyat)

<sup>9</sup> Qur'oni Karim ( Niso surasi , 3-oyat)

chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishlaringizdan va ularga adolatli bo'lishlaringizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatlilarni sevar.”<sup>10</sup>

Qur'on olimlarining xulosasiga ko'ra, barcha millatlar hamda barcha e'tiqod egalari ham inson bo'lganliklari uchun yoki Allohning bandasi bo'lganliklari uchun mazkur qoidalar ularga ham tegishli deb hisoblaydilar. Qur'on nuqtai nazaridan, adolat bu majburiyatdir. Shuning uchun ham Rasuli akram (s.a.v.)ga shunday deyilgan: “...Agar hukm qilsangiz, o'rtalarida adolat bilan hukm qiling!...”<sup>11</sup>

“Albatta, biz sizga ushbu Kitob (Qur'on)ni odamlar orasida Alloh ko'rsatgan yo'l bilan hukm etishingiz uchun barhaq nozil etdik. Xoinlarga esa homiy bo'l mang!”<sup>12</sup>

Qur'on o'zini asosan e'tiqod va adolat tamoyillariga suyanishga bag'ishlagan muqaddas kalom sifatida namoyon qiladi.“Rabbingiz so'zi rostlik va adolatda kamoliga yetdi. Uning so'zlarini o'zgartiruvchi (kuch) yo'q. U eshituvchi va biluvchidir”<sup>13</sup>

Adolat qilishga yetaklaydigan ko'rsatma, ya'ni zudlik bilan o'zidan keyin omonatni bajo keltirishga yetaklaydigan ko'rsatma omonatlar ichidagi eng muhimi ekanligini ifodalangan. Qur'on ta'limotida adolat shaxsiy fazilat sifatida va har bir iymonli insonni Allohga taqvo qilishga ruhlantiradigan axloqning eng go'zal na'munalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Alloh subhonahu va taolo deydi: “... Odil bo'lingiz! Zero, u (adolat) taqvoga yaqinroqdir...”<sup>14</sup>

Qur'on o'zini asosan e'tiqod va adolat tamoyillariga suyanishga bag'ishlagan muqaddas kalom sifatida namoyon qiladi.Umuman olganda haqiqat va adolat insoniy munosabatlarning negizidir. Agar jamiyat haqiqat va adolatga asoslanmasa, unda zulm va adolatsizlik avj oladi. Islom bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi choralarga

<sup>10</sup> Qu`roni Karim ( Muhtahana surasi , 8-oyat)

<sup>11</sup> Qu`oni Karim (Moida surasi,42-oyat)

<sup>12</sup> Qu`roni Karim ( Niso surasi, 105-oyat)

<sup>13</sup> Qu`roni Karim (An`om surasi, 115-oyat)

<sup>14</sup> Qu`roni Karim( Moida surasi, 8-oyat)

e'tibor qaratadi ular quydagilardir, Adolatli rahbarlik jamiyatda tartib va farovonlikni ta'minlaydi, Haqiqatni targ'ib qilish orqali yolg'on va fitnalarning oldi olinadi, Islom insonni zulm vaadolatsizlikka qarshi turishga undaydi.

Qur'onda adolat 29 marta eslatib o'tilgan va bir nechta shakllarga ega, ular quydagilar: Buzg'unchi bilan adolat va ey iymon keltirganlar, Xudoning Solih shahidlari bo'linglar va odamlarning gunohlaridan xafa bo'l manglar, agar siz o'zgartirmasangiz, o'zgartirmasangiz, taqvoga yaqinroq va Allohdan qo'rqsangiz, Allah qilayotgan ishingizda mutaxassisidir. Xotin bilan adolat va siz ayollar o'rtasida tuzata olmaysiz va agar ehtiyoj bo'lsangiz, barcha moyillikni moyil qilmang, shunda siz uni sharhlovchi sifatida ko'rasiz va agar siz isloh qilsangiz va qo'rqsangiz, Allah kechirimli, rahmdil edi. Savdo-sotiqlida adolat va muvozanatni va premiumni amalga oshiradi. Adolat hukmdorga tegishli. va agar siz hukm qilsangiz, ular orasida mukofot bilan hukm qiling, Xudo to'lovlarni yaxshi ko'radi.

## Xulosa

Islom dini haqiqat va adolat tamoyillarini insoniyat hayotining muhim negizlaridan biri sifatida talqin qiladi. Ushbu maqolada Qur'on oyatlari va Hadislari asosida haqiqat va adolatning chuqur mazmuni ochib berildi. Ular nafaqat axloqiy qadriyat, balki ijtimoiy hayotning barqarorligi uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalardir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotiy faoliyatları orqali ushbu tamoyillarning amaliy ahamiyati ham yoritildi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, shaxsiy axloq, yetimlarga munosabat va boshqa masalalarda haqiqat va adolatga rioya qilish Islomda doimiy targ'ib qilinadi. Shunday ekan, har bir musulmon bu tamoyillarga amal qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmoq'i lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim. (O'zbekcha tarjima va tafsiri)
2. Imom Buxoriy. Sahih al-Buxoriy.
3. Imom Muslim. Sahih Muslim.

4. Al-G‘azzoliy. Ihyo Ulum ad-Din.
5. Usmon Xan. Islomdaadolat va haqiqat asoslari. Toshkent: Movarounnahr, 2018.